Engine ignition should be carried out mainly on the starter, only in some cases with the help of a drive lever. In order to prevent damage to the hand paws, it is necessary to hold the handle in such a way that all the paws of the right hand are located

on one side of the handle. Rotation of the elbow shaft is carried out only from the bottom up, while rotation in a circle is prohibited.

RESULT

In cases where gas leaks are observed, engine ignition is prohibited. To carry out Adjustment work on the running engine, a special post should be allocated, which is equipped in such a way as to suck out the gases used. If there is gas under pressure in the Rings and pipes of the gas unit in cars with gas cylinders, then it is also forbidden to harden its details and carry out other repair work.

It is forbidden to leave empty containers from fuel or lubricants in car maintenance and repair rooms. Spilled fuel or oil should be quickly cleaned using sand or a cannon. After the end of the work, the used wiping materials must be collected and placed in a special container. Maintenance and repair work on the equipment of the supply system removed from the car is carried out in a Workshop (Workshop). The details of the supply system should be provided in the wash tub, in verstaks intended for disassembly-Assembly, adjustment and inspection of tools, as well as ventilation-suction cups in the sharpening machine.

DISCUSSION

In order for the gas cylinder to be driven from the fitting and fasten it, the probabilities of the gas outlet from the gas cylinder high-pressure reducer and methods of its elimination, so that the gas flow in the gas pipes does not form plugs, it is necessary to operate filters and control the appearance of a gas smell under the hood and

A practical approach to the gas balloon equipment system is completed by determining its structure and the faults encountered in it and eliminating them.

Analysis of the result obtained. The application of gas cylinder equipment in cars, the principles of their structure and operation, maintenance of equipment should be considered from the point of view of the necessary and complex work.

The student must know the application of equipment, its components, the principle of operation, the failures that occur, the work that is constantly monitored, the failures that occur in the system and the methods of their elimination

Pre-soldering and Tinning cleaning of the details should be carried out in workplaces with local vents. Before repairing fuel tanks and containers freed from combustible liquids, it is necessary to wash with hot water, steam with hot steam and wash in caustic soda, and dry with hot air. Soldering and welding work should be carried out in the case when the plugs are opened. The Flare is extinguished in a stream of fire extinguisher, sand or spilled water. Cold water is poured over them so that the pressure in the gas cylinders does not increase.

Hot water or a water joint can be used to relieve the hydrates formed in the system. The use of open flame retardant methods in yogurt is prohibited.

CONCLUSION

Now let's move on to solving the given Research situations by widely attracting students with access to Sunday information. After that, it can be assumed that the main problems posed in the lesson were solved.

The most profound and solid is the knowledge acquired by students in the process of active independent activity, which is based on the widespread implementation of the method of research, problematic and programmed teaching in the educational process, various manifestations of students' individual work.

By mastering the topic, the reader will gain understanding and knowledge about its importance in the national economy, the main problems that need to be implemented in the future, as well as factors that ensure the reliable operation of equipment.

It was noted that it is important to comply with the rules of disaffection when providing technical services to gas equipment installed on cars. Soldering and welding work should be carried out in the case when the plugs are opened. The Flare is extinguished in a stream of fire extinguisher, sand or spilled water. Cold water is poured over them so that the pressure in the gas cylinders does not increase.

Hot water or a water joint can be used to relieve the hydrates formed in the system. The use of open flame retardant methods in yogurt is prohibited.

REFERENCES

1. Borovsky Y.I. and others "structure, maintenance and repair of cars". Tashkent "Talkin" - 2008
2. Bazarov B. I Gas-cylinder vehicles and stationary installations -Toshkent, TADI 2005-204 s
3. Bazarov B.I., Kulakov S.A., Saidov A.H. Alternative motor fuels. – Tashkent: SHAMSASA, 2014. - 189 p.
4. Muhammadiyev U. Sh To the master's thesis on the topic "improving gas engine performance by providing additional air" Tashkent, TDTU – 2022-125 s

MOBIL MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)

yo'nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mobil maktabgacha ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish, bolalarni mobil maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olishni oshirish mexanizmlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ko'chma maktabgacha ta'lim, mobil guruhlar

ANNOTATION

This article provides information on the effective organization of mobile preschool education services, mechanisms for increasing the coverage of children in the mobile preschool education system.

Key words: preschool education, mobile preschool education, mobile groups

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, aholiga maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning yangi innovatsion muqobil shakllarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining:

2019-2020 o‘quv yilidan boshlab, mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini mazkur qarorga [1-ilovaga](#) muvofiq ro‘yxat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublika viloyatlari tumanlarida amalga oshirish;

mobil guruhlarini zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan ISUZU NC 40 avtobuslarida tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

2. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini (keyingi o‘rinlarda tajriba-sinov loyihasi deb ataladi) amalga oshirishda asosiy vazifalari etib belgilansin:

mobil guruhlarini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalardan shakllantirish;

mobil guruhlardagi ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

mobil guruhlarini o‘quv-uslubiy, didaktik materiallari, rivojlantiruvchi o‘yin va o‘yinchoqlar, milliy madaniy-tarixiy boyliklarni aks ettiradigan hamda bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni oshiradigan badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash;

ilg‘or xorijiy tajriba inobatga olingan holda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha ta’lim muassasalariga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlash;

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta’lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatish;

maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini rivojlantirish.

3. Belgilab qo‘yilsinki, mobil guruhlar maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi (bir haftada 7,5 soatdan kam bo‘lmagan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etgan holda).

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bir hafta muddatda:

mobil guruhlarning ta'lim berish va o'yin faoliyati maydonchalarini tashkil etish uchun yer maydonlari ajratilishi va tayyorlanishi, zarur bo'lganda sanitariya qoidalari va normalari, gigiyena normativlari talablariga muvofiq yangi bolalar o'yin maydonchalarini qurish yoki mavjudlarini kapital ta'mirlash to'g'risida takliflar kiritilishini;

mobil guruhlarning ta'lim berish va o'yin faoliyati maydonchalarini tashkil qilish uchun marshrut va turargohlar joylashgan joyni ko'rsatgan holda, mobil guruhlar ro'yxati shakllantirilishini;

mobil guruhlarni o'quv-uslubiy, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar bilan ta'minlasin.

5. Quyidagilar:

Maktabgacha ta'lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizam [2-ilovaga](#) muvofiq;

Maktabgacha ta'lim mobil guruhlarni jihozlash normativlari [3-ilovaga](#) muvofiq;

Mobil guruhlarning ta'lim berish va o'yin faoliyati maydonchalarini jihozlash normativlari [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Belgilab qo'yilsinki, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning [ma'muriy reglamenti](#) bolalarni maktabgacha ta'lim mobil guruhlariga qabul qilishga tatbiq etilmaydi.

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bir oy muddatda mobil guruhlarni yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan birgalikda mobil guruhlarning ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini tizimli nazorat qilish va faoliyatini tashkil qilish monitoringini amalga oshirsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini shakllantirishda tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar mazkur qaror doirasida ajratilishini nazarda tutsin;

kiritiladigan qo'shimcha shtat birliklari va mobil guruhlarni saqlash hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2019-yilgi xarajatlar parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritsin;

bir oy muddatda mobil guruhlar biriktirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunali shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan birgalikda tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish yakunlari bo'yicha mobil guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning bo'lishini tashkil etishni hisobga olgan holda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlash, joylashtirish hamda ish rejimini tashkil qilish yuzasidan tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qayta jihozlangan ISUZU NC 40 avtobuslari bepul rasmiylashtirilishi, ro'yxatdan o'tkazilishi, ularga davlat raqami belgilari ajratilishi, shuningdek, ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tartib-taomillar amalga oshirilishini ta'minlasin.

12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish natijalari bo'yicha 2020-yil 1-sentabrga qadar tahlil o'tkazib, mazkur loyihani amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflar kiritsin.

O'zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish kengaytiriladi. Vazirlar Mahkamasining "Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi e'lon qilindi.

Qayd etilishicha, maktabgacha ta'limning muqobil shakllari, jumladan zamonaviy talablarga javob beradigan avtobuslar bazasida mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish bo'yicha dastlabki loyihaning asosiy maqsadi – aholiga, asosan, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi past bo'lgan joylarda qulay maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.

Tajriba-sinov doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mobil guruhlar bazasidagi 93 ta guruhda 1 556 nafar bolaga maktabgacha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, 2020 yil oxiriga kelib respublikada bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 60,9 foizni tashkil etdi. Ayni vaqtda respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning umumiy soni 1 093 240 nafarni tashkil etmoqda. "Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, dastlabki loyihani o'rganish natijasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan hozirgi zamon talablariga javob beradigan avtobuslar negizida mobil guruhlar loyihasini kengaytirish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur mobil

guruhlar maktabgacha ta'lim xizmatlari deyarli mavjud bo'lmagan olis hududlarda tegishli bir yo'nalish bo'ylab harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maktabgacha ta'lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qaroriga ilova.

KREDIT-MODUL TIZIMI VA UNING AFZALLIKLARI

Sharipova E'zoza Fazliddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti,
Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada-kredit modul tizimi va ungacha bo'lgan ta'lim tizimining farqli jihatlari hamda kredit-modul tizimining afzalliklari haqida so'z boradi. Bundan tashqari, kredit-modul tizimining oliy o'quv yurtlarida qanday muhim o'zgarishlarga sabab bo'lganligi to'g'risida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: kredit-modul, baholash mezonlari.

Bir necha asrlardan buyon olib borilayotgan islohotlar yangilikka qaratilgan bo'lib, bu innogvatsion jarayon davlatning rivojlanishi, albatta, boshqa sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasiga bog'liqdir. Agar inson o'qib o'rganmaganda, izlanmaganda edi, hozirgi kundagi texnikalar hamisha sarob bo'lib qolgan bo'lar edi. Aytib o'tish joizki, 11 yillik ta'lim majburiy va undan so'ng oliy o'quv yurtlari ixtiyoriy ravishda belgilab qo'yilgan bo'lib, bu jarayon har bir o'qishga shijoati bor o'quvchi uchun, albatta, intilish motivatsiya olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga universitet, institut kabi ta'lim muassasalari etuk kadrlarni etishtirib berishga ixtisoslashgan bo'lib, bu davlatning rivojlanishiga hissa qo'shadigan kadrlar bo'lishi talab etiladi, ya'ni oliy o'quv yurtlari davlat oldidagi majburiyatini bajarish talabiga javob bera olishi kerak. Ammo shuni narsa muhimki, o'tgan bir necha yillar davomida o'quv jarayonini boshqarish tizimida juda ko'plab kamchiliklar mavjud edi. Bu esa ta'lim sifatining yuqori darajaga chiqishi uchun to'sqinlik qilar edi. Masalan, baholash sistemasini oladigan bo'lsak, barcha o'quv jarayonlarida talaba va o'quvchilar 2,3,4,5 kabi tarzida

baholanar edi. Ammo bu tizim xorijiy mamlakatlarida o'qishni xohlagan talabalar uchun qo'l kelmadi, ya'ni xorijiy mamlakatlar baholash tizimi butunlay boshqacha bo'lganligi sababli, yurtimizdan borgan talabalarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qish istagini amalga oshirishlarida qiyinchiliklar tug'dirmoqda edi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son hamda «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi.⁷ Bunda: 2020/2021-o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi ko'rsatib o'tilgan.⁸

Ushbu nizom orqali oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit to'plash va ko'chirishning Evropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilashi aniq qilib ko'rsatib berilgan. Bu ham ta'limda o'zgarish bo'lishi uchun juda katta turtki bo'lgan bir omil desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shundan so'ng bir qancha ilmiy yondashuvlar orqali, ya'ni davlat ta'lim muassasalari mutasaddilari hamda muassasa etakchi olimlari bir nechta davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda har tomonlama qulaylikka ega bo'lgan kredit-modul tizimini joriy etish tavsiyasini berganligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu tizim, avvalo, Toshkent Axborot texnologiyalar universitetida sinovdan o'tkazilib, yaxshi natijaga

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 29.04.2019. № PF-5712.

⁸ <https://lex.uz/docs/5193564>

erishilgandan so'ng, 2020/2021-o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'limmuassasalarida joriy qilish ko'zda tutildi.

Demak, ushbu tizimning avvalgi tizimdan qanday ustunlik jihatlari borligini ko'rib chiqamiz maqsadga muvofiqdir.

Birinchi, eng qulay tomonlaridan biri shuki, tizim elektron shaklda, ya'ni inson omilisiz foydalaniladi, demakki, qog'ozbozlikdan qutulish desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchi, ushbu tizimning asosiy maqsadlaridan biri talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, erkin fikr almasha olish hamda tizimga yuklanga manbaalarni mustaqil o'zlashtirishi kabi qulayliklar egadir.

Uchinchi, yana ustun jihatlari aytdigan bo'lsak, ushbu tizim talabalar almashinuvini muammosiz yo'lga qo'yishdek muhim bir vazifani avtomatik ravishda omalga oshirishga yo'l ochib beradi. Chunki bitta universitetda olingan kredit ikkinchi universitetda ham hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'ta olishi imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchi, talabalar o'zlari xohlagan professor-o'qituvchilarni darsida qatnasha olish huquqiga ega bo'ladi va shu bilan birga professor-o'qituvchilarga talab ham ortadi va ushbu darajaga erishish uchun talabgorlar ko'payadi desak adashmagan bo'lamiz.

Kredit-modul tizimining afzallik jihatlari faqat yuqoridagilar emas. Balki oldingi ta'lim tizimida talaba bir semester davomida qoldirgan dars soati 30 soatdan oshsa ogohlantiriladi, 74 soatdan oshsa, talabalik safidan chiqariladi edi, ammo kredit-modul tizimida unday emas, barcha fanlarga alohida kreditlar ajratilgan va har bir semester davomida 30 kredit to'plashi kerak bo'ladi va jami 4 yil davomida 240 kredit to'planadi, 1-2 yillik magistratura dasturini tugallash uchun esa 60-120 kredit to'plashlari zarurligi bilan juda ham ahamiyatlidir. Ya'niki, talaba o'zlashtira olmagan fanlarini to'rt yil davomida o'zlashtirish olish imkoniyatiga ega bo'lishi juda ham katta imkoniyat ekanligidan dalolatdir.

Albatta, ustun jihatlarini sanasak, juda ham ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz, oldingi baholash tizimda semester davomida uchta fandan o‘ta olmagan talaba o‘qishdan chetlashtirilar edi, lekin ushbu tizimda agar talaba qaysidir fan imtihonidan o‘ta olmasa, unga nizom talablari asosida o‘sha fanni qayta o‘qishga imkoni bor, o‘qishdan chetlashtirilmagan holda 8 yil ichida topshira olishi imkoniyati yaratilgan. Shuning uchun har bir belgilab qo‘yilgan dars kredit to‘plash uchun juda muhim, shu o‘rinda aytish kerakki, talabalarni davomat qilish ham kerak emas, chunki kredit to‘plab semestr oxirida belgilangan nazorat turidan o‘ta olishlari uchun darsda faol qatnashishlari lozim bo‘ladi, bu ham talabalarning zimmasiga qo‘yilgan mas’uliyatlardan bir sifatida baholanishi mumkin.

Hech kimga sir emaski, barcha katta va kichik, rivojlangan va jadal rivojlanayotgan davlatlarda, albatta, ta’lim muassasalarida ba’zi muammolar mavjud, bu nafaqat davlatni, balki ta’lim tizimini ham rivojlanishiga katta to‘sqinlik qiladigan xavf desak adashmagan bo‘lamiz. Bu kabi yomon illatlar yaqin kunlarga (kredit-modul tizimi joriy etilgunicha) ta’lim sohamizda mavjud edi va yangi tizim joriy etilganidan so‘ng bu kabi muammolar echimni topganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu kredit modul tizmi ta’limning tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi va shu bilan birga muqaddam joriy etilgan tizim bilan solishtiradigan bo‘lsak, juda ham ko‘p afzal jihatlarini ko‘ramiz. Bu kabi yangicha qadamlar davlatimizning boshqa jabhalarida ham qo‘llanilmoqda hamda o‘z imkoniyatlarini ochib berishdek muhim vazifalarni bajarmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 29.04.2019. № PF-5712.*
2. *1 <https://lex.uz/docs/5193564>*

РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА ПРИ ОБУЧЕНИИ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ЛЭПБУКОВ

Доц. Алимова Ф.А., Анорбоева Р.А., ТГПУ им. Низами

АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕМЫ

Усовершенствование традиционных форм обучения и поиск новых форм, методов, средств, адекватных целям развития участников образовательного процесса, является актуальной проблемой для учителя. Каждый урок требует тщательной подготовки. Дидактика долгое время, основываясь на пассивных методах запоминания и последующего воспроизведения учебного материала, обуславливало формирование преимущественно репродуктивного способа мышления. Поиск новых способов обучения ведет к тому, что образовательный процесс сосредоточен на личности, которая поставлена перед необходимостью решения конкретных проблем в социуме, не должна ограничиваться лишь воспроизведением готовой информации, а творчески преобразовывать информацию в окружающей действительности.

Ключевые слова: Лэпбук, инновационное средство, обучение, образовательный процесс, совместная деятельность, творческий потенциал.

«Лэпбук» (lapbook) – в дословном переводе с английского языка значит «наколенная книга» (lap – колени, book - книга).

Автором пособия является американка Тэмми Дюби. Ей пришла в голову идея наполнить маленькие папки разными кармашками с картинками, стишками и поделками из бумаги, чтобы закрепить и сохранить информацию, которую она изучала со своими детьми. Фото первого лэпбука появилось в Интернете и стало настоящим пособием для всех родителей, воспитателей и учителей.

Несмотря на то, что выглядит он довольно просто, лэпбук содержит все необходимые материалы по рассматриваемой теме. Им можно пользоваться не только дома, но и в учебных заведениях. Лэпбуки интересны и полезны тем, что их создают совместно.

Лэпбук обеспечивает:

- возможность учитывать индивидуальные способности учеников (задания разной сложности);
- разнообразие игровых заданий;
- интегрирование разных видов школьной деятельности (речевую, познавательную, игровую);

- возможность структурировать сложную информацию;
- возможность разнообразить самую скучную тему;
- научить простому способу запоминания;
- компактное хранение (большое количество разных заданий и игр в одной папке);
- вариативность использования заданий;
- возможность добавлять новые задания в «кармашки».

Лэпбук способствует организации личной и самостоятельной работы с учениками, помогает школьнику наиболее информативно и интересно изучить какой-либо материал, а также оказывает благоприятное влияние на взаимодействие учеников.

Лэпбук является прекрасным помощником ученику в восприятии и усвоении информации по изучаемым темам. В любой момент он может открыть его и с удовольствием повторить материал, рассматривая изготовленную самостоятельно книгу.

Лэпбуки отлично подходят для групповых занятий, на которых одновременно присутствуют школьников разного возраста.

Вместе с тем, лэпбук с не меньшей эффективностью можно использовать и в обучении химии. В этом случае, у лэпбуков есть несколько явных преимуществ:

Это оригинальная форма организации учебного материала, отличающаяся от ставших уже традиционными коллажей, опорных конспектов;

Лэпбук дает возможность задействовать сразу несколько органов чувств – зрение, тактильные ощущения;

Это творческий результат индивидуальной или групповой работы обучающихся;

Самостоятельный процесс создания лэпбуков дает возможность самостоятельно найти творческое решение и повторить материал, узнать новую информация в ненавязчивой форме;

Лэпбук можно использовать как на уроке, так и во внеурочной деятельности, например, при выполнении проектной деятельности. Помимо этого, домашнее задание целесообразно связать с наполнением такой папки. Кроме того, учитель имеет возможность создать кармашек «рефлексия» и после ее проведения собрать данный папки. Они с легкостью входят в сумку или рюкзак и поэтому их не затруднит взять домой и проверить качество выполнения домашнего задания, а также посмотреть результаты рефлексии ребят.

Меня заинтересовала возможность использования лэпбука в процессе обучения химии. Естественно, что уровень самостоятельности старших

школьников при создании лэпбука гораздо выше, нежели в начальной школе, вплоть до полной самостоятельности. Кроме того, меняется цель данной работы – это уже не столько средство обобщения и систематизации знаний, сколько способ взглянуть иначе на информацию: упростить, сделать необходимые акценты, создать дидактическое пособие на свой вкус.

Наиболее широкое применение лэпбуки могут найти при запоминании химических элементов, установление причинно-следственных связей, когда важно сформировать основные представления и одновременно привить ученику интерес к химии. Лэпбуки помогают быстро и эффективно усвоить новую информацию и закрепить изученное в занимательно-игровой форме. Эти тематические пособия в идеале разрабатываются специально под конкретного ученика с его уровнем знаний. Оформлением может заниматься школьник самостоятельно, придумывая оригинальное оформление, тем самым ученик раскрывает свой творческий потенциал.

Как у любого метода обучения, у лэпбука есть недостатки, которые перечислены ниже вместе со способами их нивелирования:

Большие затраты времени на создание. Как ни удивительно, лэпбук можно создать даже в течение урока, правда, для этого необходимо использовать заготовки: макет пособия, с наклеенными элементами (конвертами, кармашками и др.); распечатанные фотографии и рисунки по теме, элементы схемы и т. д.; цветные маркеры. Урок следует выстроить таким образом, чтобы лэпбук заполнялся по мере изучения материала. Соответственно, пособие будет содержать как элементы, заполняемые под диктовку учителя, так и элементы, содержимое которых будет нарисовано или отобрано в результате групповой работы. Таким образом, полученное пособие будет визуальным отображением содержания урока.

Следующие недостатки лэпбука связаны с его творческой «природой» – преобладание «внешнего» над «внутренним» или возможная потеря исторического содержания в угоду форме, а также сложность оценивания. Проблемы можно решить, если обговорить круг вопросов, которые должны быть раскрыты в лэпбуке и, если заранее ознакомить учащихся с критериями оценивания.

Таким образом, считаем целесообразным использовать лэпбуки в процессе обучения химии. Информация лучше всего запоминается тогда, когда она эмоционально окрашена. Такая папка имеет явное преимущество. Учащийся не только запомнит материал, но и самостоятельно углубит свои знания, наполняя содержание папки самостоятельно.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алимova Ф.А., Абдуллаева Н.А. Интеллект-Карты Как Познавательный Инструмент Обработки Информации При Обучении Курса Органической Химии //International Journal of Formal Education. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 24-27.

2. Alimova F. A. Project activities of students in the digital educational environment //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т. 11. – №. 12. – С. 97-99. 3.

3. Технология лэпбук и её практическое применение в педагогической деятельности

<https://infourok.ru/master-klass-dlya-pedagogov-tehnologiya-lepbuk-i-eyo-prakticheskoe-primenenie-v-pedagogicheskoy-deyatelnosti-4087692.html>

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI

Murodova Moxigul

BuxDu magistratura 2- bosqich talabasi

ABSTRAKT

Uzoq vaqt davomida tilshunoslikda interferensiya hodisasi faqat to'g'ridan-to'g'ri til aloqasi natijasida kelib chiqishi kuzatilgan. 19-asrning oxirida ko'p millatli davlatlarda tillarni o'rganish natijasida olimlar tillar bir-biriga ta'sir qiladi va tillar aralashadi degan xulosaga kelishdi. Garchi yoritiladigan mavzu uzoq vaqtlardan beri ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan bo'lsada, shunga qaramay, u bir qator sabablarga ko'ra dolzarbligicha qolmoqda. Birinchilardan bo'lib, interferensiya hodisasining ta'rifi haligacha bahsli bo'lib kelmoqda. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, interferensiya hodisasi asosan salbiy ma'noda qaralar edi, vaqt o'tishi bilan uning tilga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Yana bir munozarali tomoni bu – tadqiqotchilar orasida interferensiya namoyon bo'ladigan sohalarni belgilashdagi qarashlarning turlicha bo'lishi edi. Biroq an'analarga ko'ra, interferensiya fonetik, leksik va grammatik bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishgan. 20 - asrning oxirida ular bu hodisani tillararo (nafaqat ikki tilli, balki ko'p tilli) ham bo'lishi mumkinligi haqida gapira boshladilar

Kalit so'zlar: *Interferensiya, tillararo interferensiya, ichki interferensiya, lingvistik interferensiya, sintaktik interferensiya*

Rus-polyak tilshunosi I.A.**Boduen de** Kurtene tillarning aralash tabiati haqida birinchilardan bo'lib gapira boshladi. Tillarning bir-biriga ta'siri ostida olim aloqa paytida tillarning qayta tuzilishi haqida fikr yuritdi. Shu bilan birga, uning asosiy fikri shundaki, tillar aloqaga kirishganda nafaqat bir tilning boshqa til birliklarini qarz olishi, balki umuman tillarning yaqinlashishi ham sodir bo'ladi.

I. A. Boduen de Kurtenening fikri sharqiy lusatiya lahjasini o'rgangan tilshunos olim Shcherba tomonidan davom ettirildi. Ushbu tadqiqotlar olimga til aloqalarining zamonaviy nazariyasi uchun muhim bo'lgan xulosalar chiqarishga imkon berdi. Aynan L. V. Shcherba til aloqalarini interferensiya hodisasi (aralashuv jarayoni) sifatida o'rganish va tavsiflash dasturini bayon qilgan. Ushbu jarayonning mohiyati ma'ruzachi tili va tinglovchi tilining o'zaro moslashishi va ikkala aloqa qiluvchi til normalarining mos ravishda o'zgarishi bilan belgilanadi. Va shunga asoslanib 1915-yilda "Sharqiy Lusatiya lahjasi" asarini yaratdi. Shundan keyin, tilshunos bir muddat nemis va polyak

tillarining aralashuvi natijasida yuzaga kelgan Mozakov lahjasida gaplashadiganlar orasida yashadi va tilni tahlil qilishga harakat qildi. Tilshunos-olimning sa'y-harakatlari o'laroq tillarning bir-biriga ta'siri to'laqonli kashf qilindi.

1953 yilda V. Vaynreichning "Til aloqalari" asari nashr etildi, unda "lingvistik interferensiya" atamasi batafsil ochib berildi. Aynan shu monografiyadan so'ng "interferensiya" atamasi keng tarqaldi. "Ikki til, - deb yozadi V. Vaynreyx, - bir shaxs tomonidan bir paytda navbatma-navbat ishlatilsa, aloqada bo'ladi. Shunday qilib, aloqa joyi tilni ishlatadigan shaxslardir." Interferensiya bu- ikki tilli shaxsning nutqda bir nechta tillarni bilishi natijasida yuzaga keladigan har qanday til normalaridan chetga chiqish holatlari"- deb ta'riflaydi V. Vaynreich o'z asarida.

V. N. Yarseva tomonidan tahrirlangan lingvistik ensiklopedik lug'atda Interferensiyaning quyidagi ta'rihi keltirilgan:

"Interferensiya-bu ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasidir, bu til aloqalari paytida yoki mahalliy bo'lmagan tilning individual rivojlanishi bilan rivojlanadi; birinchisining ta'siri ostida ikkinchi til tizimi normalarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarda ifodalanadi".

V. V. Alimov o'zining "Tarjimadagi Interferensiya" asarida, ko'p yillar davomida til aralashuvi faqatgina to'g'ridan-to'g'ri til aloqasi natijasida paydo bo'ladigan lingvistik hodisa sifatida talqin etilgan-u, biroq bilvosita aralashuvdan kelib chiqadigan interferensiya deyarli ko'rib chiqilmaganligiga e'tibor qaratadi [1, p.35]. Garchi vositachilik faoliyatida yuzaga keladigan interferensiyani o'rganishga o'xshash yondashuv g'oyasi V. Vaynreyx, A. Martin, X. Shuxardt, J. Munen va boshqalarning asarlarida bir necha bor ifoda etilgan bo'lsada, umuman olganda, ushbu bayonot haqida kam fikr yuritiladi va deyarli barcha olimlar bunday tadqiqot ehtimoliga shubha bilan qarashdi.

G. Shuhard (1950), I. Valda (1961), V. V. Ivanova (1962), A. R. Lui Roy (1965), S. M. Ervina (1972) kabi turli tadqiqotchilarning turli yillarda yozilgan asarlarini e'tiborga olmaslikning iloji yo'q. Chunki ushbu asarlarning barchasi mazmun jihatdan turli qarashlar bilan bo'lsada bitta muammoni ochib, tasniflab berishga qaratilgan.

R. Ladoning "Lingvistika va madaniyat " monografiyasini asosiy ishlardan biri deb atashimiz mumkin. Bu asar 1957 yilda nashr etilgan. Unda tillarning aralashuvi bilan bog'liq hodisalar bayon qilingan. Yili bilan farq qiladigan yana bir muhim asar L. V. Shcherbaning "Tillarning aralashish konsepsiyasi to'g'risida" asari edi Ushbu asarlarning chiqarilishi bilan tilshunoslikda asosiy e'tibor amaliy qismga o'tkaziladi. Interferensiya asta-sekin qiyosiy tilshunoslikdan ajralib "Kontrastiv lingvistika " ning o'rganish obyektiga aylanadi.

Shu mavzuda olib borilgan shuncha tadqiqotlarga qaramay, interferensiya borasida haligacha bitta to'xtamga kelinmagan. Olimlar muammoga turli tomonlardan

yondashishlari bilan uning turli xil aspektlararini ochib berishadi. E. Xaugen " Til aloqasi " asarida interferensiya "qisman moslik " deya ta'riflaydi. Ushbu nazariyaga asoslanib, til birligi bir vaqtning o'zida ikki til tizimining elementi bo'la oladi deyish mumkin.

Ushbu yo'nalishda katta qadam 1989 yilda Leypsigda "Tarjimada interferensiya" to'plami nashr etilganida qilingan edi. Va bu kitob muammoli va metodologiya nuqtai nazaridan juda xilma-xil bo'lgan maqolalar to'plamidan iborat bo'lib, tarjimada interferensiya muammosini har tomonlama tahlil qilmasa ham, tadqiqotning asosiy yo'llari va yo'nalishlari bu erda bayon etilgan.

V. Yu. Rozenzveyg interferensiyani tillar aloqa qilganda ikki tillilik sharoitida qoidalardan chetga chiqish, normalarning buzilishi deb talqin qiladi. Yana bir tilshunos A. Dibold interferensiyaga "tillarning aloqasi natijasida sodir bo'ladigan til o'zgarishi" deb ta'rif beradi. Charls Xoket o'zining "Zamonaviy tilshunoslik kursi" asarida shunday yozadi: "Interferensiya bu alohida hodisa emas, balki gapiruvchi tomonidan ona tilidagi birliklarni ikkinchi tilda qo'llab yuborishdan kelib chiqadi."

Bir qator tilshunoslar chet tili nutqdagi buzilishlar va interferensiyaning namoyon bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rmaydilar. Ular bu hodisaga quyidagicha baho beradilar: Interferensiya-bu ikki tilli shaxsda paydo bo'lgan ko'nikmalarning o'zaro ta'siridan kelib chiqqan nutqning shartli buzilishi.

E. M. Oxunzyanov Interferensiya va transfertensiya tushunchalariga alohida-alohida ta'rif beradi: Interferensiya, tilshunosning fikriga ko'ra, tillarni boyitishga yordam beradigan ijobiy ta'sirga ega, transferensiya esa o'z tilining normalarini o'rganilgan tilga beixtiyor noto'g'ri ko'chirish demakdir.

Garchi asta-sekin interferensiyani nafaqat salbiy ta'sirni, balki ijobiy ta'sirni ham ko'rsatadigan asarlar paydo bo'la boshlagan bo'lsa-da, ammo fanda ushbu nazariyani qo'llab - quvvatlovchi asarlar nisbatan kam edi. K. K. Platonov birinchilardan bo'lib fanga "ko'nikmalar interferensiyasi" tushunchasini olib kirdi. Bu tushuncha ortida olim "ona tili ta'siri ostida chet tilini bilish qobiliyatini kamaytirishi yoki kuchaytirishi" mumkin bo'lgan interferensiyani nazarda tutadi.

L. N. Kovilina o'zining "sintaktik interferensiya va uni o'rganish usullari" asarida ikki tilli yoki chet tilini o'rganayotgan kishining nutq xatolari butun jamiyatning xatolarini birlashtiradi va shunga borib taqaladi "degan taklifni beradi.

Tillararo interferensiyadan tashqari, tadqiqotchilar til ichidagi interferensiyani ham o'rganib chiqdilar. L. V. Bondarko o'z ishini aynan shu turdagi interferensiyaga bag'ishlab yozdi. Uning yozishicha, adabiy til normalari va shevalarning aloqasi o'laroq tilda turli xil adabiy nutq ko'rinishlari paydo bo'ldi.

Interferensiyani tasvirlab berishda V. A. Vinogradovning asarlari umumiy e'tirofga sazovor bo'ldi. U interferensiyani o'rganish jarayonida yoki ikki tilli

sharoitda ona tili ta'sirida chet tili normalari va tizimidan chetga chiqish deb tasvirlaydi. Til aralashuvi tushunchasini talqin qilishda esa A. E. Karlinskiyning asarlari alohida e'tiborga loyiqdir. Karlinskiy o'z asarida "nutq mutatsiyasi" va "til diffuziyasi" kabi tushunchalarni taqdim etdi.

Interferensiya muammosi G. M. Vishnevskaya (1993), N. B. Mechkovskaya (1983), V. V. Alimov (2004), F. S. Ahmetzyanova (2010), V. D. Shevchenko (2011), R. K. Alishova (2012) va boshqa yetuk olimlar tomonidan o'rganildi. So'nggi o'n yillik asarlarda "interferensiya" ta'rifiga yangi tushunchalar olib kirlmadi. An'anaga ko'ra, V. Vaynreich tomonidan berilgan tavsif hozirgi kun zamonaviy lingvistika uchun asos qilib olingan.

Turli xil yillarda yozilgan asarlarda aks etgan olimlarning fikrlari bilan tanishib, biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, muammoning dolzarbligi faqatgina bir necha yillar oldin ayon bo'ldi. Shu kungacha mavzuga doir asarlar juda kam edi. Faqatgina XIX asrning ikkinchi yarmidan keyingina ko'zga ko'rinarli asarlar paydo bo'la boshladi va shundan keyin asarlar soni tobora oshib bordi

Ikkinchidan, avvallari asosan interferensiya nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa, hozirda interferensiyani amaliy jihatdan ko'rib chiqish birinchi o'ringa chiqib oldi. Tillaaro turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda va interferensiyaning yangicha talqinlari va ko'rinishlari o'rganilmoqda.

Uchinchidan, interferensiya tilning barcha sohalarda turlicha ko'rinishda namoyon bo'lganligi sababli, uni tadqiq qilishga bo'lgan qiziqish yanada ortib bormoqda. Bundan tashqari, uning ko'p jihatlari hali ko'p o'rganilmagan deb qaralganligi uchun ham, haligacha jiddiy e'tibor talab qiladi.

To'rtinchidan, mavzuga bag'ishlab yozilgan asarlarning ko'pligiga qaramay, yagona ta'rif yoki yagona tasniflash yo'q. Biroq, shu narsa aniqki, ushbu hodisaning namoyon bo'lishi uchun til aloqasi zarur. Bu hodisa ikki tillilik jarayonida yoki ko'pincha ta'limga oid jarayonlarda kuzatiladi. Aynan interferensiya hodisasi paydo bo'ladigan joy ham shaxsning o'zidir. Qachonki inson o'zining ona tilisi bo'lmagan til bilan aloqa qilganda, o'zi bilmagan holda, oddiy bilimsizlik natijasida xorijiy tilga aloqador bo'lmagan elementlarni qo'llashi natijasida ushbu hodisaning kelishib chiqishiga sabab bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алимов, В. В. *Интерференция в переводе (на материале профессионально ориентированной межкультурной коммуникации и перевода в сфере профессиональной коммуникации) : дисс...докт. филол. наук : 10.02.19 / В. В. Алимов ; Ин-т языкознания РАН. – М., 2004. – 40 с.*
2. Алишова, Р. К. *Грамматическая интерференция в английском и кыргызском языках / Р. К. Алишова // Вестник БГУ им. К. Карасева. – Брянск, 2012. – № 1 (21). – С. 218-220.*
3. Catford J. C. *A linguistic theory of translation. Lnd., Oxford Univ. Press. 1965. Encyclopedia of Britain. London. 2000.*
4. Graham I. *Difference in Translation. Camell University Press, 1985.*
5. Комиссаров, В. Н. *«Ложные друзья» переводчика в структуре английского высказывания : (к постановке проблемы) / В. Н. Комиссаров // Мосты. Журнал переводчиков. – М., 2005. – № 2. – С. 15-17.*
6. Коробова, И. В. *Межъязыковая интерференция при обучении фонетике английского языка / И. В. Коробова // Межкультурная коммуникация и перевод. – М., 2004. – С. 60-65.*
7. Лясковская, Я. В. *Некоторые пути преодоления интерференции при обучении русскому языку как иностранному / Я. В. Лясковская // Молодёжь XXI века : шаг в будущее : материалы XVII региональной научно-практической конференции (24 мая 2016 года) : в 4 т. – Благовещенск, 2016. – Т. 1. – С. 156-158.*
8. Николаев, А. И. *Интерференция на уровне интонации в коммуникативных типах предложения в ситуации искусственного многоязычия. / А. И. Николаев, И. Т. Артемьев // Вестник СВФУ. – Якутск, 2011. – Т. 8. – № 4. – с. 111-118.*
9. Vinogradov V. S. *Перевод: Общие и лексические вопросы. Учебное пособие. М. “Книжный дом “Университет”. 2006.*
10. Vladimirova N. V. *«Некоторые проблемы художественного перевода с русского на узбекский», дисс. на соискание ученой степени кан. фил. наук. Т. 1958.*
11. Vlahov S., Florin S. *Непереводимые в переводе. Москва. 1980.*
12. Щерба, Л. В. *Восточнолужицкое наречие. – Пг., 1915. – 194 с. 100.*
13. Щерба, Л. В. *О понятии смешения языков / Л. В. Щерба // Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л., 1958. – С. 40-53.*
14. Щерба, Л. В. *К вопросу о двуязычии / Л. В. Щерба // Языковая система и речевая деятельность. – Л. : Изд-во «Наука», 1974. – С. 313-318.*

O‘ZBEK ANTROPONIMLARINING YUZAGA KELISHI UCHUN ASOS BO‘LGAN MAVJUD MOTIV VA SOTSIOLINGVISTIK OMILLAR

Sharofat Xusainova Madraimovna

Magistr, O‘zbek tilshunosligi kafedrası, Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek antroponimlarining yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan mavjud motiv va sotsiolingvistik omillar shu jumladan, rasmiy va norasmiy antroponimik modellar, ularning semantik guruhlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, sotsiolingvistika, motiv, antroponimik motivatsiya, sotsiolingvistik omillar, semantik guruhlar.

Antroponimlar til lug‘aviy tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivoji va boyishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan, xalqning qadimiy e‘tiqodlari, etnografik, madaniy-ma‘naviy qarashlari bilan zich bog‘liqdir. Antroponimlarning yuzaga kelishida ismni tanlashning motivativ asoslari yetakchi omil bo‘ladi. Shuni ta‘kidlash lozimki, motivlanmagan ism bo‘lmaydi. Ismning motivativ asoslarida xalqning tarixi, milliy-etnografik an‘ana va udumlari, falsafiy, diniy e‘tiqodlari o‘z ifodasini topgan.

Ismlarning shakli, talaffuz xususiyatlari, ism anglatuvchi ma‘nolarda o‘zbek milliy tilining fonetik, orfoepik, tilning ixchamlik va qisqalikka intilish xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Bu hol ismlarga qo‘shiladigan erkalash-kichraytish shakllarida, komponentlarda, ismlarni shaklan qisqartirib talaffuz qilishda, ismlarning mintaqaviy-lahjaviy variantlarida yorqin ko‘rinadi.

Antroponimlarni sotsiolingvistik yo‘nalishda o‘rganish nomlarning izohli lug‘atlarini tuzish, har bir ismning paydo bo‘lish asosini belgilash va anglashga, antroponimlarni etnomadaniyat nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi.

Antroponim sifatida tanlanadigan so‘z va so‘z birikmalari ma‘lum asos, motivga egadir. Motivsiz ism yo‘q. Har qanday ismning tanlanishi motiv bilan bog‘likdir. Masalan, ismlarning paydo bo‘lishidagi o‘ziga xos qonuniyatlarni bilmagan ba‘zi shaxslar o‘zbek tilidagi Bo‘riboy, Qo‘chqor, Topiboldi, Sotiboldi, Boltaboy, Bolg‘aboy ismlarini eshitib hayron bo‘lishadi, xatto, ularni “nomunosib, eski nom” deb qoralashadi. Xolbuki, bu ismlarning barchasi asosida bolaning sog‘ o‘shini, bevaqt nobud bo‘lmasligini istash, umid qilish motivlari yotadi. Ma‘lumki, har qanday nomning, jumladan, ismning paydo bo‘lishiga omil bo‘lgan sabab, asos fanda motiv, bunday motivlarni ilmiy tadqiq qiluvchi soha motivatsiya, narsa va hodisalarni muayyan motivlar asosida nomlash – nominatsiya deb yuritiladi. Nomning muayyan

motivga egaligi motivlanganlik (“motivirovannost”, “motivirovka”), motiv uchun asos bo‘lgan belgi, holat, tushuncha “motifikator”, “motivema” deb yuritiladi .

Antroponimlar (ism, ota ism, familiya yoki laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan extiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi. Nomlash jarayoni ma’lum bosqichlardan iborat buladi. Bu bosqichlar birin-ketin, ikkinchisi birinchisidan mantiqan va ehtiyojga ko‘ra kelib chiqadi:

- nomlash ehtiyoji (bolaning tug‘ilishi va uni o‘zgalardan farqlash lozimligi);
- nomlanuvchi (nomlash lozim) obyekt (bola, chaqaloq);
- nom tanlash (an’anaviy nomlar orasidan yoki yangi nom topish);
- tanlangan ism motivi (asos, sababi);
- nomning lisoniy materiali (vositasi) (so‘z yoki so‘z birikmasi);
- nomlash jarayoni (ism qo‘yish bilan bog‘liq rasm-odatlarining ijrosi);
- nomlash hosilasi, ijrosi (ism, antroponim) antroponimik, nominatsion birlik;
- ismning nominativ va kommunikativ vazifasi (nom berilgan shaxsni boshqa shaxslardan farqlash, ajratish).

Chaqaloqni nomlashda nominatorlar ikki vositadan foydalanishadi:

1. An’anaviy va tayyor ismlar fondidan.
2. Yangi yasalgan (ijod qilingan) ismdan.

Ota-onalar bolaning sog‘ligi, yashab ketishi, kelajak baxti va omadi uning ismiga bog‘liq; deb hisoblashgan. Ushbu e’tiqod ismlar hosiyatli va hosiyatsiz bo‘ladi, degan tasavvurni tug‘dirgan. “Chaqaloqqa qo‘yiladigan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismlarni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Shu tarzda “asrovchi ismlar” yoki himoya nomlari” deb yuritiluvchi nomlar guruhi yuzaga kelgan” .

Umuman, barcha ismlarning berilishida so‘z sehri, so‘zning sehrlil kuchga egaligi (magiya) tushunchasi yotadi. Masalan, chaqaloqqa tug‘ilish jarayoni va ba’zi belgi-xususiyatlariga mos nom berish, bolaga ism orqali turli istak va orzularning izhor qilinishi, bola ismini yashirin tutish, ismi bolaga og‘irlik qilmoqda deb boshqa ism bilan almashtirish, bolaga nomunosib xarakterli kishilar ismini qo‘ymaslik, ism uchun keksalar nomini tanlash, buyuk tarixiy shaxslar ismiga taqlid qilib, bolani Alloh, payg‘ambar, avliyolar, mashhur din namoyandalari, o‘tgan ajdodlar nomi bilan atash, ular ruhi bolani qo‘llaydi deb bilish va boshqalar buning isbotidir.

Qayd qilingan tushuncha, e’tiqod, tasavvur va ishonchlar antroponimik motivatsiyaning etnografik asosini tashkil etuvchi omillardir. Demak, so‘z sehriga ishonish antroponominatsiyaning o‘zagini belgilaydi. So‘z sehriga ishonish asta-sekin bolaning ismidan uning taqdiri va qismatiga ta’sir qiluvchi vosita sifatida foydalanishga olib kelgan.

Kishilar juda qadimdan bolani yovuz kuchlar ta'siridan qutqarish choralari ni ahtarishgan va xilma-xil choralarni o'ylab topishgan hamda chaqaloq tug'ilgan uyda muayyan udumlar, rasm-rusumlar, qoidalar, e'tiqod va ishonchlar hukmron bo'lgan.

O'zbek antroponimiyasi tizimining katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog'liq ismlar tashkil qiladi. Islomgacha bo'lgan majusiylik davrida odamlar nimani muqaddas deb bilgan bo'lsalar, nimani ilohiylashtirib, iloh deb hisoblagan va unga sig'ingan bo'lishsa, inson hayotida yuz beradigan barcha ijobiy va salbiy o'zgarishlarni o'zlari muqaddas deb bilgan narsalar ifodasiga bog'lashgan, jumladan, bola tug'ilishini ham.

Bolaning tug'ilishi, farzandli bo'lish Allohning xohish-irodasiga bog'lanadi: Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Xudoybergan, Egamberdi, Berdimamat. Ushbu ma'noli ismlar oxiri -ulla (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlarga tegishli: Baxshulla, Nasibulla, Ne'matulla, Inoyatulla, Rizqulla, Shafkatulla, Atoulla.

Ism Allohning turli atributlarini anglatuvchi nomlarga -ulla, -bergan, -berdi, ato-kabi komponentli qo'shma va so'z ism sifatida tanlanadi: Azizulla, Karimulla, Majidulla, Nurulla, Samadulla, Xayrulla.

Bolaga Allohning bandasi, quli, xizmatkori degan ma'noni anglatuvchi ismlar qo'yiladi. Bunday ismlarni alohida so'zlardan yoki komponentlaridan birida abdu-, -qul, -g'ulom ishtirok etgan nomlar tashkil qiladi.

O'tmish ajdodlarimiz bolaning dunyoga kelishini ilohiy, shuningdek, mo'jizaviy kuchlarga bog'lashgan. Bolaning tug'ilishi va taqdirini, kelajagini, chaqaloq tug'ilish vaqtini, o'g'il yoki qiz ekanini, chaqaloqning ba'zi jismoniy-psixik harakatlarini, bola badanida ko'zga ko'rinib turgan ba'zi g'ayritabiiy ortiqchalikni o'sha ilohiy ishlarning xohish-irodasi deb bilishgan. Odamlar chaqaloq badanidagi bunday alomatlar bolaning sog'ligi va hayotiga salbiy ta'sir qiladi deb hisoblashgan va ushbu alomatlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ularning ko'payib, kattarib yoki hunuk hollarga kelib qolishidan cho'chishgan. Bu chaqaloqning sog'ligi va hayoti uchun xavf tug'diradi, deb hisoblashgan. Kishilar mana shu holatlarni bolaga ism berishda hisobga olish lozim deb bilishgan. Natijada, bolaga ismni u tug'ilgan paytdagi holat va jarayonlarni ifoda etuvchi so'zlardan tanlashgan. Aslida bunday ismlar bolaning tug'ilish jarayonini, bundagi g'ayritabiiy holatlarni tasvirlash, ta'riflashdan iborat bo'lgan. Bular asosida etnografiya va onomastika tadqiqotlarida "tasviriy ismlar" (himoya ismlari, asrovchi ismlar) deb yuritiluvchi ismlar guruhi yuzaga kelgan.

Xalq orasida belgilar bilan tug'ilgan bolalarga nisbatan "ismi o'zi bilan" tug'ilgan bola degan qarash va ibora mavjud. Bunday nomlarda chaqaloq tug'ilishi bilan ma'lum bo'lgan xususiyatlar unga berilgan ism orqali tasvirlanadi.

O'zbek antroponimiyasi tizimini tashkil qiladigan ismlarning paydo bo'lishi, shakl va ma'no jihatidan o'zgarib borishi, ismlar jamg'armasining miqdoran boyib

borishi, eng avvalo, yakka shaxsni oila, jamoa, jamiyatdagi boshqa shaxslardan farqlash, ajratish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan.

Antroponimiyaning lugʻaviy tarkibi, antroponimik fondagi oʻzgarish, yangilanish, boyish, shuningdek, baʼzi ismlarning eskirishi, isteʼmoldan chiqishi turli tarixiy davrlarda jamiyatdagi, ijtimoiy tuzumdagi oʻzgarishlar, yangilanishlar, kishilarning falsafiy, diniy-etikaviy tushunchalaridagi anʼanalar bilan bogʻliq. Shunga koʻra, ismlarga boʻlgan ehtiyoj, ism berishda amal qilinuvchi muayyan udumlar onomastik tendensiyalar bilan aloqadordir.

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, ismlar shaxslarni oʻzaro farqlash ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifasiga koʻra ism beruvchilar (nominatorlar)ning muayyan maqsadini ham ifodalaydi. Mana shu maqsad bolaga ism tanlash va yasash uchun asosiy, yetakchi motiv hisoblanadi. Mana shu motivning asosini bolaning sogʻ-salomat ulgʻayishini va kelajagi porloq boʻlishini istash tushunchasi tashkil etadi.

Qayd qilingan istakning mohiyati va uning ifodalanish usullarida lisoniy omillardan tashqari, etnografik, psixologik, etikaviy va estetik, madaniy va maʼrifiy, ijtimoiy va sotsiologik omillar asosiy oʻrin tutadi. Qayd qilingan omillarni belgilash antroponimlarning vujudga kelish motivlarini muayyan guruhlariga tasnif qilishni talab qiladi. Mana shunday tasnifni amalga oshirishda amal qilinadigan tamoyillarda tadqiqotchilar orasida bir xillik yoʻq. Koʻpgina ismshunoslar shaxs nomlarining paydo boʻlish asosini tanlanish motiviga koʻra emas, balki ism asosida qanday soʻz (apellyativ) yotganiga koʻra, tasnif qilishadi. Masalan, xayvon nomlariga nisbat berilgan ismlar, oʻsimliklar nomiga nisbat berilgan ismlar va b. Bunday tasnif antroponim asosida qanday lugʻaviy birliklar yotishini belgilash nuqtayi nazaridan ahamiyatli boʻlsa-da, ushbu birlikning qanday nominativ-semantik asosga koʻra ism vazifasiga oʻtganini aniqlashga imkon bermaydi.

Antroponimlar atoqli otlarning boshqa tiplari kabi nominatsiya (nomlash) va sotsiolingvistik jarayon ehtiyoji mahsulidir. Mana shu ehtiyoj tildagi mavjud soʻzlardan ikkinchi bor, takror foydalanish ehtiyojini tugʻdirdi, yaʼni ikkilamchi nominatsiya mahsuli boʻlib yuzaga chiqadi.

Erkaklar va ayollarga beriladigan ismlarda bir xil motivli (Tursun, Oʻlmas kabi) nomlar mavjud. Ammo ushbu motivni ifoda etayotgan ismning apellyativ asosida maʼlum farqlanishlar mavjud. Mana shu farq baʼzi erkaklar ismining ayollarga berilmasligida, aksincha, ayollarga beriladigan baʼzi ismlarning erkaklarga qoʻyilmasligida koʻrinadi.

Masalan, Goʻzal, Muqaddas, Bahoroy - ayollar ismi, ammo Qahramon, Jasur erkaklar ismidir. Demak, erkaklar va ayollar ismi ismni hosil qilgan apellyativlarga koʻra farqdanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjayeva S. O‘zbek antroponimiyasi tizimidagi axloqiy va ma’rifiy motivlar bilan bog‘liq ismlar// Istiqol va til. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Toshkent, 2007. - B. 176-179.
2. Kenjayeva S. Antroponimik qo‘sh motivatsiya // Chet tillarni nofilologik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish masalalari va muammolari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Buxoro, 2007. - B. 98-100.
3. Begmatov E., Kenjayeva S. Xalqona udumlarning nodir manbai // Chet tillarni nofilologik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish masalalari va muammolari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Buxoro, 2007. -B.47-53.
4. Begmatov E., Kenjayeva S.O‘zbek ismlari ma’nosi // O‘quv izohli lug‘at. - Toshkent: Fan, 2007. - 94 b.
5. Yu.Kenjayeva S. Ma’naviyat va onomastik motivlarning davriyligi// Fan, taraqqiyot, yoshlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Qarshi, 2008. - B. 46-48.
6. Словарь социолингвистических терминов. [Электронный ресурс]. // Словари и энциклопедии на Академике [сайт]. URL: http://sociolinguistics.academic.ru/478/Объект_социолингвистики.
7. Naming Children: England and Wales, 2013 // Law and Religion, UK. URL: <http://www.lawandreligionuk.com/2014/08/15/naming-childrenengland-and-wales-2013/>

MA'NAVIYATDA «MENTALITET» MASALASI

Rashidova Xushnoza

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: «Mentalitet» tushunchasini ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida tushunamiz. Birinchi navbatda «mentalitet tushunchasining lug'aviy ma'nosiga to'xtalamiz. «Mentalitet»(lotincha «mentalis»-«aqliy»)-ayrim shaxs yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi ma'naviy salohiyatdir.⁹

Kalit so'zlar: mentalitet, ma'naviyat, jamiyat, davlat, inson, Sharq, G'arb, zohiriy, botiniy, oila, «milliy mentalitet».

Har bir jamiyat, davlat, inson o'zida o'ziga xos mentalitetni shakllantirgan bo'ladi. Qaysi mintaqani olib qaramaylik, ularning har birida o'ziga xos mentalitet shakllangan. Misol uchun, Sharq bilan G'arb mintaqalarini olib qaraylik, «Sharq mentaliteti» o'tmish ajdodlarimizning ma'naviy, madaniy merosini o'zlashtirish natijasida juda ham boyib borgan. «Sharq mentaliteti»da milliylik ufurib turadi. Har bir jamiyat, davlat, inson «mentaliteti» qadriyatlar, urf-odatlar natijasida juda rivojlanadi. Sababi, biz o'zbek xalqi qadriyatlarga, ma'naviy merosga juda ham boy xalqmiz. O'zbek millati mentalitetining shakllanish jarayoni deyarli 3,5 mingyillik tarixga ega.¹⁰ Hozirgi mentalitetimizda qadim tariximizning ko'pgina jihatlari ham borligini ko'ramiz. Barcha sohalarga kirib kelganidek «G'arb mentaliteti» ham ma'naviyatimizga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. «G'arb mentaliteti» kirib kelishining ijobiy va salbiy tomonlari ham ko'zga tashlanadi. Asosan yoshlar mentalitetiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mentalitetning qanday bo'lishi jamiyat a'zolariga bog'liq Sababi, «mentalitet ijodkori» -insonlardir. Bu o'rinda, «milliy mentalitet» tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. «Milliy mentaliteti» kuchli bo'lgan bir qator davlatlarni bilamiz. Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamlakatlarning Ikkinchi Jahon urushidan keyin qanday og'ir ahvolga tushib qolganini hammamiz yaxshi bilamiz. Xo'sh, ular nimaning evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o'lkalarda mo'l-ko'l tabiiy homashyo manbalari, mineral resurslar deyarli yo'q-ku! Albatta, bu borada o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy omillar, xalqaro vaziyatning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Lekin, yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati ya'ni mentaliteti hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir

⁹ W.w.w.ziyo-uz.com

¹⁰ W.w.w.ziyo-uz.com

emas. Shuning uchun, «yapon mo'jizasi» yoki «koreys mo'jizasi» haqida gap ketganda taniqli ekspertva mutaxassislar ham birinchi galda «yapon xarakteri», «koreys xarakteri» degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki ular bu o'rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan.¹¹ Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan, o'zbek xalqining ham o'ziga xos tarixiy, etnik, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangan. O'zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardushtiylik, buddaviylik, islom dini va kommunistik mafkura) o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe'l-atvorida o'chmas is qoldirganini unutmaslik lozim. O'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlarni yuzaga keltirgan. O'zbek xalqiga xos bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikda moyillik, g'am-anduh paytlarida nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlari «o'zbek mentaliteti»da yakdillikni ta'minlash, til va din, fikr birligini ta'minlagan. Xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvga, havoga, olovga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni e'zozlash bilan bog'liq turfa xil urf-odat va marosimlar, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik uduari «o'zbek mentaliteti» rivojiga hissa qo'shgan omillardandir.¹² Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan lekin bolalarni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ot-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin. Bu jarayonlar ham «o'zbek mentaliteti»ga xos xususiyatlardandir. «O'zbek mentaliteti»shakllanishidagi muhim omillardan biri bu ta'lim-tarbiyadir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bu o'rinda Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslaymiz.¹³ «O'zbek mentaliteti»ga xos bir qator ezgu tushunchalar ham mavjud. Ularga diyonat, iymon-e'tiqod, mehr-shafqat kabi tushunchalarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tilida keng qo'llaniladigan diyonat tushunchasi ham iymon, e'tiqod tushunchalariga ma'no jihatidan yaqin turadi. Diyonat-

¹¹ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T,2008. B.-63.

¹² W.w.w.ziyo-uz.com.

¹³ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch".T,2008.B-35.

insonning o'z so'zida, qarashlarida, ahd-u paymonida mustahkam turishini anglatadi. Lafzida mustahkam turadigan odam ham diyonatli bo'ladi. «Axloq-odobga oid hadis na'munalari»da yozilishicha, «diyonat inson yaxshi amallarining o'ziga xos mezoni sifatida namoyon bo'ladi». Shunday qilib, iymon-e'tiqod, diyonat inson ma'naviy fazilatlarining muhim qirralaridan bo'lib, o'zida komil insoniylikni ifoda etadi. Shunday ekan, «zamondoshimiz bo'lmish iymonli odamni qisqacha shunday tavsiflash mumkin: e'tiqodli, o'zining aniq maslagiga ega, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, ornomusli, sharm-hayoli, vijdonli, andishali, insofli va shu kabi fazilatlar sohibi». Insonning ma'naviy qiyofasini tavsiflaydigan fazilatlardan biri-mehr-shafqatlilik hisoblanadi. Mehr tushunchasi keng ma'noli bo'lib, u shaxsning ota-onaga, Vatanga, farzandlariga, ijtimoiy hodisalarga, bir so'z bilan aytganda, insonni ulug'lovchi barcha narsa-hodisalarga nisbatan muhabbati va sahovatining ifodasidir. Mehr-shafqat kishilarning bir-biriga bo'lgan hurmati, muhabbati, o'zaro yordami, hamdardligi, mehribonligini ifodalaydi. Xalqimizda mehr-ko'zda degan ajoyib ibora bor. Odamlar o'zaro munosabatlarida, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida o'ziga o'xshash minglab insonlar bilan uchrashadi, ko'zi-ko'ziga tushadi, sanitization namoyon bo'ladi, o'zaro fikr almashadi, zavqini ulashadi, dardini o'rtoqlashadi. Mana shunday jarayonda esa ular o'rtasida mehr-oqibat degan bir ma'naviy muhit yuzaga keladi.¹⁴ «Mentalitet"ning kichik ko'rinishlaridan biri bu «oila»deydigan bo'lsak, shu oilada ham o'ziga xos «mentalitet»shakllangan bo'ladi. Ya'ni oiladagi mavjud qonun-qoidalar, ma'naviy muhit ta'sirida oilada «mentalitet"shakllanadi. Oilada yaxshi mentalitet shakllanishi uchun «Oilada doimo ahillik, totuvlik bo'lishi lozim».¹⁵ Ana shunday oilalardan mentalitet yetuk shaxslar yetishib chiqadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi»deb bejizga aytishmagan. Ya'ni oilada qanday mentalitet hukmron bo'lsa, o'sha oilaning farzandlari ham o'sha mentalitet ruhi ta'sirida o'sib-ulg'ayadi. Bu o'rinda «shaxs mentaliteti»degan tushunchaga to'xtalib o'tishimiz joiz. Har bir shaxs mentalitetining zohiriy(tashqi)va botiniy (ichki)alomatlarini bo'ladi.

«Iymon, diyonat, fidoyilik, vijdonlilik, mehr-shafqat, poklik va halollik singari fazilatlar shaxs mentalitetining eng muhim botiniy belgilaridir. Shaxs mentalitetining zohiriy (tashqi)alomatlariga orasta va pokiza kiyinish, qarindosh-urug, qo'ni-qo'shni, do'st-u birodarlarga hurmat bajo keltirish, o'zaro muomalada oddiylik va soddalikni aytishimiz mumkin.¹⁶ Biz jamiyatimizda shu so'zga ko'p duch kelamiz,»Bizning mentalitetimizga bu to'g'ri kelmaydi». Mana shu ibora yordamida keksa kishilar, ustozlar, ota-onalar yoshlarni to'g'ri yo'lga solishadi.

¹⁴ E.Umarov, M.Abdullayev: "Ma'naviyatshunoslik asoslari". T, 2006. B-86.

¹⁵ S.H.Nosirxo'jayev. "Ma'naviyat asoslari". T, 2005. B-197.

¹⁶ S.H.Nosirxo'jayev. "Ma'naviyat asoslari". T, 2005. B-242.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, yoshlarda mentalitetning yuqori darajada rivojlanishi go‘daklikdan boshlanar ekan. Bunda oila, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlarining o‘rni ham bor. Har bir insonning o‘z makoni va vatani bo‘ladi. O‘z ona yurtini sevish, ardoqlash ham «mentalitetning bosh g‘oyalari» degan umumiy fikrga kelishimiz mumkin. Har qanday sharoitda, har qanday vaziyatda, har qanday vaqtda bo‘lmaylik o‘z mentalitetimizga sodiq qolishimiz kerak. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo‘lur edi. Bu haqida gapirganda, mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» asaridagi qahramonlarning o‘zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham «siz»lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilamiz. Bugungi kunda ham yurtimizda ana shunday go‘zal axloq mezonlari bilan yashab kelayotgan, o‘g‘il-qizlarni shu ruhda tarbiyalayotgan ko‘plab ibratli oilalar barchamizga havas uyg‘otishi tabiiydir.¹⁷ Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo‘lgan. Farzandlar yoshligidan otasiga suyanib, onasining allasini tinglab, ularning mehriga qonib, voyaga yetganlar. Ular ko‘ngliga mehr ona suti bilan kirgan. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, onani is, otani quyosh deb bilganlar. Ota-onaga bo‘lgan bunday hurmat oilada Bu ham mentalitetimiz yuqoriligini isbotlovchi omillardan biridir.¹⁸

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. w.w.w.ziyo-uz.com
2. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" I.A.Karimov. 2008
3. "Ma'naviyat asoslari" S.H.Nosirxo‘jayev. 2005
4. "Ma'naviyatshunoslik asoslari" E.Umarov, M.Abdullayev. 2006

¹⁷ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". T, 2008. B-34-35

¹⁸ E.Umarov, M.Abdullayev: "Ma'naviyatshunoslik asoslari". T, 2006. B-89.

XORAZM OLMA NAVLARI AHAMIYATI, ULARNING URUG‘ VA MEVA HOSILDORLIGI

B.S. Islomov

Sh.Rashidov nomli SamDU, Botanika kafedrası dotsenti,

S.Sh. Sharipova

Botanika kafedrası Magistranti,

I.M. Mirzayeva

UrDU Biologiya kafedrası Magistranti.

ANNOTATSIYA

Olma-Malus yetishtirishda madaniy olma navlari. Xorazm vohasida yetishtiriladigan olma navlari va hosildorligi.

Kalit so‘zlar: Olma, Golden Delishes, Renat Semerenko, Star Krimson, Oq po‘zmarin.

KIRISH

O‘zbekiston hududi qadim zamonlardan e‘tiboran juda ko‘p mevali madaniy o‘simliklarning navlari bilan tanilgan makonligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Xorazm vohasi o‘zining shirin qovunlari - tarvuzlari, hamda mevali daraxtlarining mevasining shirinligi bilan butun dunyoga mashhurdir. Uzoq yillar davomida vohada yetishtirilgan qovunlarning va boshqa o‘simliklarning navlari, afsuski sobiq ittifoq davrida e‘tiborsizlik tufayli yo‘q qilib yuborildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, jadallashtirish bo‘yicha bir qator qaror va farmoyishlarning imzolanishi O‘zbekiston hududida qadimdan insonlarning fidokorona mehnatlari tufayli yetishtirilgan qimmatbaho navlarning saqlanishi, topilishi, ko‘paytirilishi, biologik xususiyatlarini chuqur o‘rganib introduksiya masalalarining yechilishi sohasida olib borilayotgan ishlarni ancha jadallanishiga olib keldi.

Xorazm vohasida dehqonlar va olimlar tomonidan mevali daraxtlarning ham bir qancha qimmatbaho navlari yaratilgan. Shu jumladan olma navlari ham. Xorazm olmalari o‘zining ta‘mi, xushbo‘yliligi, rangi, zararkunanda hashoratlarga chidamliligi, uzoq vaqt o‘zining ajoyib xususiyatlarini saqlagan holda tura olishi, bozorgirligi bilan ajralib turadi.

Olmalar (*Malus L.*) — ra'nodoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi; urug'li meva daraxti. Shimoliy va janubiy yarim sharning mo'tadil mintaqalarida olmaning 25— 30 turi, jumladan, O'rta va Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo va Kavkazda 10 turi tarqalgan. Ekiladigan mevali daraxtlar orasida maydoni jihatidan birinchi o'rinda turadi.

Olma ko'pchiligimizning eng sevimli mevalarimizdan biri. Bunga hayron qolmasayam bo'ladi, chunki u nafaqat g'aroyib ta'mga ega shirin meva, balki shifobaxsh xususiyatga ega ne'mat hamdir. Sharq tabobatining buyuk namoyondasi Abu Ali ibn Sino ham har kuni uxlashdan oldin bitta olma yeyishni tavsiya etgan. Olma turli-tuman vitaminlar, mikroelementlar va boshqa foydali moddalarning makoni hisoblanadi. Uning tarkibida C, B1, B2, P, E vitaminlari, karotin, kaliy, temir, marganes, kalsiy, pektinlar, qand moddasi, organik kislotalar mavjud. Olma tarkibidagi pektin va tegishli tolalar tufayli qondagi xolesterin darajasini kamaytiradi. Bir dona archilmagan olmada 3,5 gr tola, ya'ni bir sutkada organizmga zarur bo'ladigan tolalar me'yorining 10% dan ko'pi mavjud. Archilgan olmada esa tolalar miqdori 2,7 gr ni tashkil etadi. Tolalarning erimaydigan molekulalari xolesteringa yopishib, ularning organizmdan chiqishiga yordam beradi va bu bilan tomirlarning tiqilib qolishi, yurak xurujlari xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga olmada pektinlar deb nomlanuvchi eriydigan tolalar ham bor, ular jigarda hosil bo'ladigan ortiqcha xolesterinni biriktiradi va organizmdan chiqarishga ko'maklashadi. Olma po'stlog'ida katta miqdorda kversetin antioksidanti mavjud bo'lib, u C vitamini bilan birga erkin radikallarning organizmga zararli ta'sir ko'rsatishiga xalaqit beradi. Pektin olmaga uning asosiy himoya kuchini beruvchi modda ham hisoblanadi. U organizmga kiruvchi qo'rg'oshin va margimush kabi zararli moddalarni bog'laydi va organizmdan chiqaradi. Olmadagi erimaydigan tolalar ich qotishining oldini oladi va bu bilan yo'g'on ichak saratoni rivojlanishining oldini oladi. Tadqiqotchilar kuniga 2 dona olma iste'mol qilish organizmdagi xolesterin miqdorini 16% ga kamaytirishini aniqlashgan. Xuddi shuncha olma kichik yoki o'rta boshli piyoz va 4 piyola ko'k choy bilan iste'mol qilinsa, yurak xuruji sodir bo'lishi xavfini 32% ga qisqartiradi. An'anaga ko'ra olma me'da buzilishiga qarshi tabiiy vosita hisoblanadi. U ovqat hazm bo'lishini me'yoriga keltiradi. Buning o'z sabablari bor: olmada ovqat hazm bo'lishiga yordam beruvchi olma va vino kislotasi mavjud. Olma urug'lari yod moddasiga juda boy. Agar kuniga 5-6 dona olma urug'i iste'mol qilinsa, yodga bo'lgan bir kunlik ehtiyoj to'liq qondiriladi. Olma avitaminoz, C vitamini miqdori kamayganida, kamqonlikda qo'llaniladi. Nordon olmalar sharbatidan nordon olma temir ekstrakti olinadi. Undan kamqonlikda qo'llaniladi. Bundan tashqari olma siydik kislotasi hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi, qo'l-oyoqlar zirqirab og'rishi, surunkali bod kasalliklarida yordam beradi. Olma qaynatmalari va damlamalarini ichish juda foydali hisoblanadi. Buning

uchun olmani kesib, choyga solib ichishning o'zi ham kifoya. Olmadagi fitonsidlar dizenteriya, tillarang stafilokokk, A grippi viruslarining qo'zg'atuvchilariga nisbatan faol bo'ladi. Fitonsidlarning mikroblarga qarshi faolligi mevaning o'rtasiga qarab ko'payib boradi. Shuningdek olmani infarktdan keyingi davrda iste'mol qilish tavsiya etiladi. Olma sharbati yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilar uchun juda foydali. Sharbatda qon hosil qiluvchi elementlar ko'p. Yangi tayyorlangan olma sharbati safro haydash va siydik haydash xususiyatiga ega. Uni gepatoxoletsistit xastaligida, buyrakda tosh yig'ilganida, oshqozon-ichak kasalliklarida, ateroskleroz xastaligida, organizamdagi modda almashinuvi jarayonlari (semirish, artrit, qo'l-oyoqlarning zirqirab og'rishi) buzilganida ichish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, olma immun tizimini mustahkamlaydi va qondagi qand miqdorini ushlab turishga yordam beradi. Olmani ho'l meva ko'rinishida iste'mol qilgan ma'qul, biroq biroz termik ishlovdan keyin ham u o'zining oziq moddalarining aksariyatini saqlab qoladi. Olmani po'stidan ajratmaslikka harakat qiling, chunki unda, yuqorida aytib o'tganimizday, juda ko'p miqdorda pektin moddasi va tolalar mavjud. Olma insult xavfini kamaytiradi. Uning bu xususiyati tarkibidagi fenolik kislotalari bilan bog'liq. Ular antioksidantlar guruhiga kiradi. Ushbu kislotalar tomirlarda tromblar hosil bo'lishining oldini oladi. Bir so'z bilan aytganda, olma sharbati sog'liqni mustahkamlash uchun ajoyib vositadir.

Bizning Xorazm viloyati sharoitida olma va uning navlari ustida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bog'larimizda har doim yoqimli olma daraxtining bo'lishi nafaqat mevalari, balki chiroyli daraxt bo'lgani uchun ham rang-barang va zich barglari bilan ko'rk berib turadi. Ammo bunga ega bo'lish uchun olma navlariga qanday g'amxo'rlik qilishni bilish kerak, shunda biz bundan istaganimizcha zavq olishimiz mumkin. Olma daraxtining har xil navlari mavjud bo'lsada, ularning barchasi deyarli bir xil parvarishga muhtoj. Bundan tashqari, ular sovuqqa juda yaxshi bardosh beradigan o'simliklardir, shuning uchun agar siz bog'ingizda har tomonlama foydali o'simlikni xohlasangiz, albatta, olmalardan ekishni maslahat beramiz. Olma bog'lari ham g'amxo'rlikni sevadi. Bular quyidagilarni bilishimizni taqozo etadi: 1.Oлма daraxti bog'ni qaysi joyida ekish kerakligini aniq bilish; 2.Olmani G'arbiy, Markaziy Osiyoning tog'li hududlarida tug'ilgan, bargli o'simlik ekanligini bilishingiz kerak; 3.Mahalliy olmalarning maksimal balandligi 10 metrga yetishi mumkinligini; 4.Garchi ekin ekish paytida juda ko'p o'sishga yo'l qo'yilsa, kam kesilsa, boshqa ekinlarni siqib qo'yishi mumkinligini; 5.Asilda olma mevalarini yig'ishni yengillashtirish uchun uni eng ko'pi bilan 4 metr balandligini ushlab turish zarurligini; 6.Uning gultoji ochiq, gulida nektar ko'pligini, changlanish asosan hashoratlar yordamida bo'lishini; 7.Olmalarning shox-shabbalari yumaloq va juda tarvaqaylab ketganda hosildorlik kamayib, undan tasvirlar shaklidagi, arrasimon

qirg'oqli yoki to'mtoq barglar o'sib chiqib, yuqori yuzasi tishli qirrali va quyuq yashil, pastki qismida esa tuklar paydo bo'lishini; va boshqalarni bilish kerak.

Dunyoda olma turlarining 1000 ga yaqin navlari va kenja navlari mavjud. Biz Xorazm vohasining olma navlarini o'rganish natijasida quyidagi navlarni topishga muvaffaq bo'ldik. Ular quyidagilar: 1. Rimning Apple go'zalligi: - meva po'sti qizil va sariq rangga ega. Kechki nav. 2. Gala olma: - meva po'sti sarg'ish. Kuzgi nav. 3. Oltin mazali olma: - meva po'sti oltin rangga ega va juda suvli. Yozgi nav. 4. Qizil mazali olma: - meva po'sti qizil, shuningdek, suvli go'shtga ega. Yozgi nav. 5. Pippin olma: - meva po'sti och yashil biroz kechki nav. 6. Pulpa Yashil navi - meva po'sti rangi yashil va ozgina kislotali nav. 7. Qizil Grafenshteyn navi. 8. Dilishes navi. 9. Star Krimson navi. 10. Golden delishes –serhosil nav. 11. Renet Semerenko olma navi – qishgi. 12. Jonatan – yozgi va kuzgi olma navi. 13. Alpinist navi qishgi bo'lib, boshqa olma navlari bilan yaxshi changlanadi. 14. Goldenspur –daraxtlari deyarli katta bo'lmaydi, mevasini saqlash oson, xaridorgir. 15. Oq po'zmarin – haqiqiy Xorazm xalqi uchun xos nav bo'lib, Pespublikamizning boshqa viloyatlarida deyarli uchramaydi.

Olma daraxti va ularning navlarini yetishtirish juda talabchanlikni, ko'p xizmatlarni talab etmaydi. Biroq, undan sifatli va yetarli miqdordagi meva etishtirishi uchun uning ehtiyojlarini qondirish juda muhimdir. Shunday qilib, biz nafaqat maqsadimizga, balki uning sog'lom daraxt ekanligiga ham erishamiz. Bu daraxt kuniga kamida 6 - 8 soatgacha quyosh nurlariga ehtiyoj sezadi. Sovuqdan zarar ko'rmaydi, ammo ba'zi navlari erta bahorda bo'ladigan sovuqlar ta'sirida, sok harakati boshlanib qolgan gul kurtaklaridan ajralib qolishi mumkin. Agar bog' yaratayotgan hududingiz kichkina joy bo'lsa, siz tanlagan olma navingizni kesishingiz yoki mitti olma navlarini sotib olishingiz kerak bo'ladi. Sug'orishga kelsak, olma daraxtining voyaga yetganidan keyin yiliga 200-300 litr atrofida suv kerak bo'ladi. Imkon qadar suvning tez bug'lanishiga yo'l qo'ymaslik uchun daraxt soyani olganidan keyin sug'orish tavsiya etiladi. Qish paytida, tuproqni muzlashining oldini olish uchun sug'orish tavsiya etilmaydi. O'g'itlar olma daraxtiga foydali bo'lishiga qaramay, daraxt yangi ekilganida ularni qo'llashdan saqlanish kerak. Siz organik kompost qo'shishingiz mumkin, masalan, daraxt ekilganda unga suv bilan birga bahorda va yoz oylarida o'g'itlardan foydalanish lozim. Olma navlarini ekish oralig'i mahalliy navlar uchun kamida 3 metr masofada bo'lishi kerak. Chunki kasallik shoxlari bilan ham tarqaladi va meva yetishtirish uchun salbiy ta'sir qiladi.

Olma daraxtining kesilishi, asosan, uning mevalari og'irligini ko'tarishi uchun kerakli miqdordagi shoxlarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bu juda samarali, shuning uchun daraxt shoxlarning siyraklashtirish vaqti-vaqti bilan bajarilishi kerak bo'lgan tadbirdir. Xorazm olma navlariga zarar keltiradigan eng ko'p ta'sir qiladigan

zararkunandalar quyidagilar: Qizil o'rgimchak, shira, psila, mevali chivin, San-Xose tunlami va mevaxo'r kashtador qo'ng'izlar. Ko'pincha bu hashoratlar keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi biologik yo'l bilan yoki zarari kam bo'lgan kimyoviy preparatlar qo'llaniladi.

Olma daraxti va uning navlarini mevalari pishgach kuzda va qishda urug'lari bilan ko'paytirilishi mumkin. Ya'ni urug'lar stratifikatsiyadan o'tgach ekiladi. Unib chiqqan nihollar ikkinchi yil bahorda payvandlashga tayyor bo'ladi. Nihol va payvandlar Xorazm sharoitida -12°C sovuqqacha bardosh beradi.

Bizning Xorazm olma navlari bo'yicha kuzatuvlarimiz natijasida olgan ba'zi ma'lumotlarimizni quyida havola etamiz:

Qizil Grafenshteyn Xiva navi –O'zbekistonning deyarli barcha yerlarida uchraydi. Daraxti baquvvat, katta bo'lib o'sadi. Mevasi yoz oxirlarida pishadi. Ko'chati ekilgach, 4-5 yilda hosilga kiradi. Hosildorligi yaxshi. Mevasi yumaloq, chiroyli, rangdor, o'rtacha vazni 100-130gr, biroz qovurg'ali, po'sti hidli, yashil-sariq. Eti sarg'ish oq suvli, shirin xushxo'r. u sovuqqa o'rtacha chidamli nav. Xorazm Delishesi – qishki serhosil olma navi bo'lib, 5-7 yilda hosilga kiradi. Mevasi pishganda to'q-qizil rang oladi. Avgust-sentabr oyi o'rtasida uzib olinadi. Mevasi yirik va o'rta me'yorda, vazni 150-180 gr. Xorazm Jonatan –kuzda pishadigan, barvaqt hosilga kiradigan nav. Daraxtning bo'yi 4,5-5 metr, shox-shabbasi yoyiq holda, diametri 5,9m, meva vazni 100-120gr. Ekilgan ko'chati 4-5 yilda hosilga kiradi, 7-yildan boshlab har bir daraxt 70-80kg dan hosil beradi, 12-14 yoshga kirganda hosil miqdori ikki hissa oshadi. 3.Star Krimson –navining daraxti past bo'ladi, novdalari qisqa va yo'g'on bo'lib, bo'g'in oralari qisqadir. Pakana payvandtagda 3-yili hosil bera boshlaydi. Serhosil, lekin hosili har yili ham bir tekis bo'lavermaydi. Mevasining tashqi ko'rinishi o'ziga rom qiladigan darajada, po'sti tig'iz, dag'al, eti yupqa, qisman po'stining ustida mum dog'lar uchraydi, qizil rang bilan qoplangan. Mevasi iste'mol qilinadigan qismining rangi oq-sariq, donador, qarsildoq, xushbo'y hidga ega bo'lib, kislotasi sezilmas darajada. 4.Golden delishes –serhosil nav, kechpishar, shirin. Daraxti pakana bo'yli, shox-shabbasi dumaloq shaklda, 3-4 yilda hosilga kiradi.5.Renet Semerenko olma navi bilan bir vaqtda gullab, bir tekisda hosil berish hususiyatiga ega. U Renet Semerenko, Jonatan, Alpinist olma navlari bilan yaxshi changlanadi va ularni changlaydi. Mevasining vazni 130-160gr, shakli cho'ziqroq yoki dumaloq cho'ziq bo'lib, rangi oltinsimondir. Meva qobig'ining ustida kulrang dog'lar va ayrim paytlarida zangsimon dog'lar uchraydi. Eti yaltiroq sariq, tig'izligi o'rtacha, xushbo'y. Mevasi avgust oyining oxiri, sentyabr oylari boshida pishadi. Graym oltini –kech pishib yetiladigan olma navidir. Mevasining mazasi juda yaxshi, shakli chiroyli, sariq pillasimon rangda. Ko'chat doimiy yerga ekilganidan keyin, 4-5 yilda hosil bera boshlab, to'liq hosilga 6-7yilda kiradi. Mevasining vazni 70-80gr bo'lib, sentyabrda

pishib yetiladi. 7.Oq ro‘zmarin –bu qishki haqiqiy Xorazm navi bo‘lib, Respublikamizning boshqa viloyatlarida deyarli uchramaydi. Uning hosili joyida va uzoqlarga yuborish uchun yaroqlidir. Daraxti kuchli, piramida shaklida o‘sadi. Mevasining vazni 75-100gr. Daraxt ekilgandan keyin 6-7-yildan boshlab hosil bera boshlaydi. Kuchli payvandtaglarga ulab o‘stirilgan daraxtlar kech hosilga kiradi. Daraxtlar 10-12 yoshga kirganda hosil bera boshlaydi. Hosili sentabr oyining boshlarida terib olinadi. To‘liq hosilga kirgan tuplaridan 250-300 kg gacha hosil terib olish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Rejametov, L.Normuratov, “Meva rezavor va tok ko‘chatlarini tashkil etish” Toshkent-2018.
2. T.E.Ostonaqulov, S.X.Narziyeva, B.X.G‘ulomov “Mevachilik asoslari” Toshkent-2011
3. I.Ergashev “Meva va rezavor meva ekinlari seleksiyasi va navshunosligidan amaliy mashg‘ulotlar” Toshkent-2007
4. www.mirishkor.uz

MADANIY TADBIRLAR TURLARI XUSUSIYATIDAN KELIB CHIQIB TADBIRLAR SENARIYSINI YARATISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Mamashukurov Ozodbek Erkin o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy tadbirlar xususiyatlaridan kelib chiqib tadbirlar senariysini yaratishning o‘ziga xosligi, ularning turlari aks ettirilgan

Kalit so‘zlar: senariy, senariy turlari, kino senariy, sirk senariysi, televizion senariy, ommaviy -madaniy tadbir senariysi, radio senariy

УНИКАЛЬНОСТЬ СОЗДАНИЯ СЦЕНАРИЯ МЕРОПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВИДОВ КУЛЬТУРНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Мамашукуров Озодбек Эркинович

Наманганский государственный университет

Аннотация: в данной статье отражена уникальность создания событийных сценариев на основе особенностей культурных событий, их видов

Ключевые слова: сценарий, виды сценария, киносценарий, цирковой сценарий, телесценарий, сценарий общественно-культурного мероприятия, радиосценарий

THE UNIQUENESS OF CREATING A SCENARIO OF EVENTS BASED ON THE CHARACTERISTICS OF THE TYPES OF CULTURAL EVENTS

Mamashukurov Ozodbek

Namangan State University

Abstract: in this article, the uniqueness of creating event scenarios based on the characteristics of cultural events, their types are reflected

Key words: script, types of script, movie script, circus script, television script, public-cultural event script, radio script.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni turlariga qarab, faoliyat mazuniga qarab ham senariylar bir qator turlarga bo'linadi va ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari

mavjud. Senariy – hozirgi zamon sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yaxshilashning ham asosiy mezonidir. Binobarin, madaniy-ma'rifiy muassasalari ishini yanada takomillashtirishning muhim vazifasi – tomoshabinga g'oyaviy ta'sir qilishni kuchaytirishdan iboratdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalari senariysi – bo'lg'usi tomoshaning so'zlar, dalillar orqali tizimlashtirilgan mantiqidir.

Shu o'rinda senariy atamasini tahlil etsak, "Senariy" so'zi U.Qoraboyev o'zining "Badiiy-ommaviy tadbirlar" kitobida yozishicha, italyancha so'zdan olingan bo'lib, "asarning plani, sxemasi"ni anglatadi. Lug'atlarda esa senariy:

1) kinosenariy;

2) teatrdagi qo'yiladigan dramatik asarning rejasi, syujet chizig'i, operadagi dramatik harakatning tasviri, baletda - syujetning barcha raqs va mimikalarini o'z ichiga olgan mukammal bayoni;

3) pyesada ishtirok etuvchilarning sahnaga chiqish payti va tartib ko'rsatilgan yo'l-yo'riqdir, deb izoh etilgan. [1]

Haydar Muhammad o'zining "Senariynavislik mahorati" kitobida "Senariynavislik- "Senariy" so'ziga forscha "Navosanda"-yozuvchi, adib ma'nosidan "navis" olinib, "Senariynavis" atamasi yaratilgan va joriy qilingan", deb yozadi. Muallif ushbu kitobda televideniya, kino va teatrlashtirilgan tomoshalar senariysi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni bergan. [2]

Yana boshqa manbalarda - "Senariy" (italyancha "Scenario" -adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi), tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi, deb yozilgan. Ammo har qanday holatda ham senariy - o'tkaziladigan tadbirlar, bayram va tomoshalarning to'liq yozma bayonidir, deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Senariy yozilishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- tadbir o'tkaziladigan joy o'rganiladi;
- mahalliy sharoitdan mavzu, tadbir g'oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;
- hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- sahnaviy usullardan, foydalanish yo'llari izlanadi, ta'sirchan vositalar tanlanadi.

Ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis, dotsent V.Rustamovning ta'kidlashicha rejissuraning ixtisosliklari ko'p bo'lganidek, (masalan, teatr rejissyorligi, televideniya rejissyorligi, radio rejissyorligi, qo'g'irchoq

teatri rejissurasi, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va h.k. kabi) senariy ham turli ixtisosliklari va tabiati bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan:

1. Kino senariy -(badiiy filmlar senariysi, hujjatli filmlar senariysi, ilmiy-ommabop filmlar senariysi, qo'g'irchoq va multifilmlar senariysi). Bu alohida o'ziga xos sohalardan biri bo'lib, juda katta mahorat talab qiladigan ijodiy va tashkiliy ishlar uyg'unligida amalga oshiriladigan ishdir. Kinosenariyni hamma ssenaristlar ham yozavermaydi. Kinosenariyda kadrdagi voqeliklar, tasvirga olinadigan joy, turli shovqin, tovush va ovozlari, aktyorning holati, xatti-harakatlari, turli to'qnashuvlar, bir so'z bilan aytganda, film (kino)ning muvaffaqiyati uchun xizmat qiladigan barcha badiiy-ijodiy, texnik jarayonlarni yozma bayonida aks ettiriladi.

Kinosenariyning yaratilishining o'zi bir nechta turlari xususiyatidan kelib chiqib yoziladi. Masalan, badiiy film yaratish bilan hujjatli film yaratish o'rtasida o'ziga xos farq qiladigan va o'xshash tomonlari bor. Badiiy filmlarda to'qima obraz, improvizatsiya yoki ijroni rejissor o'zi xohlagancha talqin qiladi. Hujjatli filmlarda esa aniq obyekt va subyektlar doirasida ish olib boriladi. Berilgan faktlarni o'zgartirmay, aniq, lo'nda qilib badiiylashtirish kerak bo'ladi.

2. Televizion senariylar - (adabiy-badiiy ko'rsatuvlar senariysi, publitsistik — axborot ko'rsatuvlar senariysi, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar senariysi, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar senariysi, o'yin-ko'ngilochar ko'rsatuvlar senariysi, televizion filmlar senariysi, musiqiy ko'rsatuvlar senariysi va h.k.). Agar film alohida olingan bitta senariy asosida xohlagan joyda, kerakli obyektlarda tasvirga olish ishlarini amalga oshirish jarayonida yaratiladigan bo'lsa, televizion senariylar asosan turli mavzudagi ko'rsatuvlar nuqtai nazardan qaraladi. Bu jarayon turli suhbat, intervyu, uchrashuv, muloqot tarzida amalga oshirilsa, film yaratishda esa rejissorning taklifi, aktyorlarning vaqti sharoitiga qarab, xohlagan paytda tasvirga olish ishlarini amalga oshirish mumkin. Film yaratilishida senariyning to'liq matni bo'lishi shart. Uni tasvirga olish jarayonida o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish imkoniyatlari ko'p bo'ladi. Ammo, ko'rsatuvlarni tayyorlashda to'la, mukammal yozilgan senariy bolishi shart emas, deb o'ylaymiz. Masalan, 100 yoshga kirgan otaxon bilan uchrashuv tashkil etish va uni tasvirga olish kerak bo'lganda, boshlovchi muharrir yoki dastur muallifi tomonidan tayyorlangan turli savollarni beradi va otaxon bunga javob beradi va boshlovchi xulosani berish bilan ko'rsatuvni tugatishi mumkin.

3. Radioeshittirishlar senariysi - (ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar senariysi, adabiy - badiiy eshittirishlar senariysi, publitsistik-axborot eshittirishlari senariysi, musiqiy eshittirishlar senariysi, ma'naviy - ma'rifiy eshittirishlar senariysi, o'yin-ko'ngilochar eshittirishlar senariysi va h.k.) - bunda asosan matn katta rol o'ynaydi. Tinglovchilar uchun yoqadigan, ularni qiziqishlariga javob bera oladigan, turli konsert dasturlari, turfa xil mavzulardagi eshittirishlar omixtasini ishlab chiqishda senariy tuzishni bilish

muhimdir. Radioeshittirishda tayyor axborotlardan muharrirning bergan topshirig'iga asosan bema'lol foydalanish mumkin.

4. Sirk tomoshalari senariysi-(Turli sport tomoshalari, akrobatlar, hayvonlarning chiqishlari, masxaraboz va yakka nomerlar, dorboz va h.k. nomerlarining ketma-ketligidan iborat bo'ladi). Sirk tomoshalari uchun ham senariy yaratish kerak. Chunki, chiqishlarning ketma-ketligi, keyingi nomerlarga tayyorgarlik ko'rish uchun senariy kerak bo'ladi. Bunday tomoshalarda ko'pincha dasturdan foydalaniladi. Dastur bo'yicha tayyorgarlik va namoyish amalga oshiriladi. Har bir alohida nomerning ichida qilinadigan ishlar uchun nomer tayyorlagan shaxs javobgar hisoblanadi.

5. Ommaviy tadbir va tomoshalar senariysi -(ommaviy teatrlashtirilgan tomosha, teatrlashtirilgan konsert, adabiy-badiiy, adabiy musiqali kompozitsiyalar, marosim tomoshalari, ommaviy sport tomoshalari, suvda, muzda o'tkaziladigan tomoshalar, karnaval, xalq tomoshalari, badiiy-publitsistik kompozitsiyalar va h.k.lar senariylari kiradi). Ommaviy bayramlar, teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkil etish alohida o'rganilishi lozim bo'lgan sohadir. o'zbekistonda ommaviy bayramlar to'g'risidagi tushunchalar 1980-90-yillarda rejissor B.Sayfullayevning Leningradda o'qishga borib kelganlaridan keyin Toshkent davlat madaniyat institutidagi faoliyati bilan bevosita bog'liq. Ommaviy tadbir va tomoshalarni tashkil etish uchun alohida maktab kerakligi chuqur anglagan rejissor bu sohani rivojlantirish borasida juda katta ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. O'sha davrlarda turli mavzularda o'tkazilgan maydon tomoshalari bunga misol bo'la oladi.[3]

Ommaviy tadbir va tomoshalari tashkil etishning o'ziga xosligi shundaki, uning tomoshalar o'tadigan joylari standart emas, balki noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tkazilishi bilan ajralib turishi, unda "korobka ichidagi sahna"ning, undagi bo'lishi lozim bo'lgan jihozlarning yo'qligi, ishtirokchilarining maxsus malakaga ega emasliklari, ishtirokchilarning son jihatidan ko'pligi va boshqa jihatlari bilan o'ziga xos bo'lgan jiddiy yondashuvni talab qiladigan soha ekanligini anglash qiyin emas. Eng qiyin jihati bunda spektakl qo'yishdagidek tayyor dramatik manbaning yo'qligidir. Maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlar uchun senariy yozishda senarist rejissorning fikri, uning nuqtai nazarini to'g'ri anglab olishi va maydonga mazmun beruvchi vositalardan to'liq foydalanish alohida mahorat talab qiladigan jarayondir.[4]

Hozirgi kunda ilmiy anjumanlarini tashkil etish bo'yicha ham senariylar yozilmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'tkazilgan lektoriylar bunga misol bo'la oladi. Bunday tadbirlar ilmiy-ma'rifiy tadbirlar deb nomlanadi.

Har qanday dastur qisqacha va lo'nda, jarayonning barcha jihatlari qamrab olgan bo'lishi lozim.

Ilmiy anjumanlardan yana bittasi lektoriylardir. Lektoriylar aniq bir mavzu ustida olimlarning fikr -mulohazalari, ma'ruzalar shaklida o'tkaziladi. Lektoriy - (krt.

lectorium, nem. Lettner) - qadimiy katolik cherkovlarida ibodat paytida qo‘yiladigan baland yog‘och minbar. Lektoriylar XI asrda Italiyada, keyinroq Germaniya va Fransiyada paydo bo‘lgan. Hozirda lektoriylar - ko‘proq ilmiy tadbirlarga oid bo‘lib, ma‘lum bir mavzu asosida ilmiy fikr almashinadi. Bunday tadbirlar insonlarni ilmiy salohiyatini oshirishga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, bilimlarini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Tadbirlarning turlarini, janrini aniq bo‘lishi uning senariysini yaratishda ishlarini osonlashtiradi. Chunki senarist aniq janr ustida ishlaganda chalg‘imaydi, aniq, to‘g‘ri yo‘ldan boradi. Shuni aytib o‘tish joizki, har bir tadbirni tashkil etishda o‘ziga xos protsedurasi (ishni bajarish tartibi, ish bosqichlari, talablari) borki, u o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Uning dramatik asosi senariyni yaratishda esa bu xususiyat va talablar albatta hisobga olinishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir tadbirning dasturi puxta, aniq va hammaga tushunarli holda tayyorlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Qoraboyev – Badiiy ommaviy tadbirlar T-o‘qituvchi
2. Xaydar Muxamadaliyev. Senariynavislik mahorati.-Toshkent: Musiqa, 2009.
3. Rustamov V. Senariynavislik mahorati. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
4. B. Sayfullayev, V.Rustamov, B.Innatullayev Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati – Namangan 2021
5. www.ziyonet.uz
6. www.google.ru
7. www.fikr.uz

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Rahima Abdullayeva. (2023). RAHBARNING ISHNI TASHKIL QILISH MAHORATI. SCHOLAR, 1(5), 4–7. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685680
2	Azamat Kuvatbayevich Nazibekov. (2023). EKOLOGIYALÍQ QURAMALÍ SHARAYATLARDA JAYLASQAN AYMAQLARDA KÓSHE HÁM JOL TARMAQLARÍNÍN QALASAZLÍQ SHESHIMLERI (QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MÍSALÍNDA). SCHOLAR, 1(5), 8–11. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685688
3	Fayzullayev Mirjalol Sheramat o'g'li. (2023). METAFORA VA FAXRIYOR SHE'RIYATI. SCHOLAR, 1(5), 12–16. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685702
4	Baxiyeva Aygerim Tolıbay qızı. (2023). QARAQALPAQSTAN TARIYXINDA 2-JA'HA'N URIS JILLARINA SHEKEMGI HAWA TRANSPORTIN SHO'LKEMLESTIRIWGE BOLG'AN ITIBARDIN' PAYDA BOLIWI. SCHOLAR, 1(5), 17–21. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685749
5	Bobonazarova Gulzoda. (2023). SHOIRA SHAMS LIRIKASIDA TASHBIH SAN'ATINING QO'LLANILISHI. SCHOLAR, 1(5), 22–25. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685755
6	Xamidov Riqsiboy Xojimurotovich, & Muhammadiyev Umarali Sheraliyevich. (2023). LABOR SAFETY IN THE MAINTENANCE OF GAS BALLOON EQUIPMENT. SCHOLAR, 1(5), 26–29. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685768
7	Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi. (2023). MOBIL MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH. SCHOLAR, 1(5), 30–34. https://doi.org/10.5281/zenodo.7685776

8

Sharipova E'zoza Fazliddin qizi. (2023). KREDIT-MODUL TIZIMI VA UNING AFZALLIKLARI. SCHOLAR, 1(5), 35–38.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7685784>

9

Алимова Ф.А., & Анорбоева Р.А. (2023). РАЗВИТИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА ПРИ ОБУЧЕНИИ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ЛЭПБУКОВ. SCHOLAR, 1(5), 39–42.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7685794>

10

Murodova Moxigul. (2023). INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI. SCHOLAR, 1(5), 43–47.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7685808>

11

Sharofat Xusainova Madraimovna. (2023). O'ZBEK ANTROPONIMLARINING YUZAGA KELISHI UCHUN ASOS BO'LGAN MAVJUD MOTIV VA SOTSIOLINGVISTIK OMILLAR. SCHOLAR, 1(5), 48–52. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7686247>

12

Rashidova Xushnoza. (2023). MA'NAVIYATDA «MENTALITET» MASALASI. SCHOLAR, 1(5), 53–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7686256>

13

B.S. Islomov, S.Sh. Sharipova, & I.M. Mirzayeva. (2023). XORAZM OLMA NAVLARI AHAMIYATI, ULARNING URUG' VA MEVA HOSILDORLIGI. SCHOLAR, 1(5), 57–62. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7686261>

14

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li. (2023). MADANIY TADBIRLAR TURLARI XUSUSIYATIDAN KELIB CHIQIB TADBIRLAR SENARIYSINI YARATISHNING O'ZIGA XOSLIGI. SCHOLAR, 1(5), 63–67. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7686279>